



## «TARBIYA» FANINING MILLIY TA'LIM-TARBIYA UCHUN IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURIYATI

G.M.Tajiboyeva

NamDPI katta o'qituvchisi

M.Xabibullayeva

NamDPI 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15244231>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Aprel 2025 yil

Ma'qullandi: 15-Aprel 2025 yil

Nashr qilindi: 19-Aprel 2025 yil

### KEYWORDS

*Tarbiya, ijtimoiy tarbiya, ma'naviyat, uzluksiz ta'lim, milliy qadriyatlar, yoshlar, globallashuv, "Tarbiya" fani, ma'naviy tarbiya konsepsiyasi, pedagogik jarayon, ma'rifat.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada "Tarbiya" fanining O'zbekiston ta'lim-tarbiya tizimidagi o'rni, uning yosh avlodni ma'naviy va axloqiy jihatdan kamol toptirishdagi ahamiyati ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan yoritilgan. Muallif globallashuv davrida yoshlar ongini salbiy ta'sirlardan himoyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiya tizimini takomillashtirish zarurligini asoslab beradi.*

Tarbiya – avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiluvchi, oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV va boshqalar ta'siri ostida jismonan sog'lom, ma'nau barkamol insonni shakllantirish va takomillashtirish jarayonini anglatuvchi tushuncha sifatida ta'riflanadi.

Biroq bugungi globallashuv jarayonida dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar yoshlar tarbiyasiga yanada katta e'tibor berishni talab etmoqda. Yoshlar ongi va tafakkuriga tahdid solayotgan xudbinlik va loqaydlik, mintaqaviy mojarolar, diniy aqidaparastlik, terrorizm, fundamentalizm, «ommaviy madaniyat» ta'siriga berilmaslik uchun g'oyaviy, ma'naviy-mafkuraviy immunitetni shakllantirish davr talabiga aylandi.

Bu boradagi muammolar Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan chuqur tahlil etib berildi. "Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migrasiya, "ommaviy madaniyat" degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi.

O'quvchi-yoshlar ongini zaharlashga qaratilgan radikal qarashlar, o'zbekona qadriyatlarimizga mutlaqo yot g'oyalarning jamiyatimizga kirib kelishini bartarf etuvchi asosiy omil – bu insonparvar, tinchliksevar, ma'rifatparvar va dunyo e'trof etgan milliy-diniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan tarbiya jarayonidir.

Yangi jamiyat barpo etish, barkamol avlodni tarbiyalashda yuksak ma'naviy fazilatlarining ustuvorligini ta'minlashda uzluksiz ta'lim tizimi yetakchi kuchga aylanmoqda. Buning bir qator sabablari borki, ularni ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy-mafkuraviy ishda e'tiborga olmaslik mumkin emas.

**Birinchidan**, mamlakatimiz tom ma'noda yoshlar mamlakati hisoblanadi. Yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojini qondirish, yuksak mafkuraviy bilimni ijtimoiy tarbiya orqali shakllantirish hozirda juda zarur bo'lib qolmoqda. Chunki ijtimoiy tarbiya hayotimizning barcha jabhalarida mavjud va ularning imkoniyatlari kengdir.

**Ikkinchidan**, dunyo tobora globallashib bormoqda. Dunyoning turli burchaklaridan "ommaviy madaniyat" deb nomlangan hodisa bizning yurtimizga ham kirib kelmoqda. Buning aksariyat salmog'i ommaviy axborot vositalari orqali tarqaladi. Ayrim yoshlarimizda ommaviy axborot vositalari orqali bunday "madaniyat"ni o'zlashtirishga beriluvchanlik kayfiyatlari yo'q emas. Qolaversa, dunyo globallashuvi – tabiiy jarayon. Uning yaxshi, ibratli tomonlari ham yo'q emas, kuchli axborotlashuv, ma'lumotlar orqali zo'raygan hozirgi davrda faqat hissiyotlarga emas, balki aqlga suyangan holda ish tutishgina yoshlarimizning adashmasdan o'z yo'lini topishiga imkon berishi mumkin.

**Uchinchidan**, o'quvchi-yoshlarga ijtimoiy tarbiya berish ularning tafakkur tarzini boyitish bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lim-tarbiya ishlari tizimida o'quvchilarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, gazeta, jurnal, radio, televideniye vositasida ular ongiga ta'sir etish davr talabiga aylandi. O'qigan, eshitgan va ko'rgan voqeyelikni idrok qilish, tegishli xulosalar chiqarish va unga o'z munosabatini bildirish mustaqil fikrlash madaniyatining shakllanganligidan darak beradi.

"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayotganligi, ...bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigit-qizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirishi, ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatayotganligi, ma'naviy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, o'quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emasligi ijtimoiy-pedagogik muammo ekanligi ta'kidlanib, yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarini yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish ushbu Konsepsiyaning maqsadi sifatida belgilab berildi.

Ushbu maqsadga erishish, uni amalda ro'yobga chiqarish uchun bola tarbiyasida milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish; ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish vazifasini amalga oshirish talab etildi.

Mamlakatimizda uzluksiz tarbiya jarayonini takomillashtirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining I — XI sinflari uchun «Odobnoma», «Vatan tuyg'usi», «Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari», «Dinlar tarixi» fanlarini birlashtirgan holda «Tarbiya» fanini joriy qilish ko'zda tutildi.

"Tarbiya" fani umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy tarbiya jarayoni shaxsning ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishga, uning atrof-tevarakka, jamiyatga, odamlarga, o'ziga nisbatan munosabatlar doirasini vujudga keltirishga, kengaytirishga qaratilgan. Shaxs ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi qancha keng, xilma-xil bo'lsa, uning ma'naviy dunyosi shunchalik boy bo'ladi.

O'z tabiatiga ko'ra tarbiya jarayoni ko'p omilli xarakterga ega, ya'ni bola shaxsining qaror topishiga oila, maktab, jamoatchilik ijtimoiy muhit, shuningdek, vaziyatlar xilma-xilligi bevosita va bilvosita ta'sir etadi. "Tarbiya" fani ana shu omillarni birlashtiruvchi, o'quvchi shaxsiga maqsadli ta'sir ko'rsatish shakli, metodi va vositasini o'zida mujassamlashtirgan pedagogik jarayon sifatida muhim ijtimoiy funksiyani bajaradi.

"Tarbiya" fanini o'qitish natijasi samarali bo'lishi uchun quyidagilarga e'tibor berish zarur deb o'ylaymiz:

- tarbiya maqsadi va mazmunini aniqlash;
- o'quvchilarning ma'naviy ehtiyoji, qiziqishlari va talablarini e'tiborga olish;
- o'quvchilarning bilim saviyasi, mantiqiy fikrlash darajasi, tarbiyalanganlik holatini aniqlash;
- o'qituvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, pedagogik mahorati va shaxsiy o'rnak bo'lishi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globalashuv sharoitida "Tarbiya" fanini o'qitishga tizimli yondashish, ta'lim – tarbiya jarayoniga innovasion pedagogik texnologiyalarni tadbiiq etish, ilmiy-metodik ta'minotni fanni o'qitishning dolzarb muammolariga yo'naltirish, o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari salmog'ini oshirish, ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlardan lardan samarali foydalanish orqali yoshlarning ijtimoiylashuvini ta'minlash, odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni voyaga yetkazish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Natijada konsepsiyada ta'kidlanganidek, oila, ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, ota-onalarda boy milliy tarbiyaviy merosimiz to'g'risida bilimlar shakllanadi, ularni o'rganish, saqlash, targ'ib qilish, o'rgatish orqali milliy fazilatlarining avloddan-avlodga bezavol o'tib borishi ta'minlanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. –T.: "O'zbekiston", 2017 y. -23 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. [https://nrm.uz/contentf?doc=612868\\_o'zbekiston\\_respublikasi\\_prezidenti\\_shavkat\\_mirzieevning\\_oliy\\_majlisga\\_murojaatnomasi\\_\(2020\\_yil\\_24\\_yanvar\)](https://nrm.uz/contentf?doc=612868_o'zbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzieevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_(2020_yil_24_yanvar)).
3. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda Qarori.
4. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009. – 526-527-betlar.
5. Tarbiya. N.Ismatova va boshqalar. Umumiy o'rta maktablarning 1-sinf o'quvchilari uchun darslik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2020 y.

6. Mahmudjonovna, T. G. Z. (2024). TARBIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 43, 16-22.
7. Isakov, A. (2023). Approaches to Teaching Art in a Digital Age: An Analytical Review of Research between 2000-2021. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(10), 8-19.
8. Abduvahobovich, I. A. (2022). Digital Educational materials for the organization and conduct of fine arts lessons in uzbekistan. *Eur. Multidiscip. J. Mod. Sci*, 4, 122-132.
9. Fayzullayev, T. (2024). the Role of Digital Technology in Education of Uzbekistan. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 3(2), 162-165.

